

O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' SPEECH

J.A. Qadirov

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, metodologik yondashuvlari hamda samarali usullari tahlil qilingan. O'quvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda lingvistik, adabiy, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy faoliyatni tashkil etish, badiiy adabiyot va folklor namunalari vositasida so'z boyligini oshirish, fikrni izchil va aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ochib berilgan. Maqolada o'quvchilar nutqini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. o'quvchi nutqi, nutq rivoji, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, metodologiya, lingvistik omillar, adabiy omillar, folklor, og'zaki nutq, nutqiy ko'nikmalar.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-педагогические основы, методологические подходы и эффективные методы развития речи учащихся в процессе начального образования. Раскрывается значение лингвистических, литературных, социальных и природных факторов в формировании коммуникативной компетентности учащихся, развитии устной и письменной речи. Особое внимание уделяется учёту возрастных и психофизиологических особенностей младших школьников, использованию произведений художественной литературы и фольклора для обогащения словарного запаса, формирования навыков последовательного и выразительного изложения мыслей. В статье представлены методические рекомендации, направленные на совершенствование процесса развития речевых способностей учащихся на основе современных педагогических подходов.

Ключевые слова. развитие речи учащихся, начальное образование, коммуникативная компетентность, методология, речевые навыки,

лингвистические факторы, литературные факторы, фольклор, устная речь, педагогические технологии.

Abstract. This article examines the scientific and pedagogical foundations, methodological approaches, and effective methods for developing students' speech skills in primary education. The role of linguistic, literary, social, and natural factors in forming students' communicative competence and improving their oral and written communication abilities is analyzed. The article highlights the importance of considering the age-related and psychophysiological characteristics of primary school students, as well as the use of literary works and folklore examples to enrich vocabulary, develop coherent speech, and improve the ability to express ideas clearly and logically. Methodological recommendations aimed at enhancing students' speech development based on modern educational approaches are presented.

Keywords. *students' speech development, primary education, communicative competence, methodology, speech skills, linguistic factors, literary factors, folklore, oral speech, pedagogical*

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mavjud muammolarni bartaraf qilishda ilmiy yondashuvni qaror toptirishni taqozo qilmoqda. Mavjud muammolarga nisbatan tizimli yondashuv uning oqibatlariga qarshi kurashishdan ko'ra sabablarini bartaraf etishga qaratiladi. Bu esa muammoning yana shu shakl va mazmunda takrorlanishining oldini oladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni ta'lim va tarbiya jarayoniga adaptatsiya qilish, ularning tafakkurida ta'lim va tarbiya tamoyillariga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu yoshdagi o'quvchi va tarbiyalanuvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, ularni ta'lim olishga nisbatan adaptatsiya davrini oqilona tashkil qilish kelajakda ularning munosib ta'lim va tarbiya olishini ta'minlaydi.

Yangi O'zbekiston sharoitida o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, ularning intellektini oshirish, qalbida o'z Vatani va xalqiga chuqur hurmatni shakllantirish har doimgidan ham dolazrb ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarda ushbu fazilatlarni qaror toptirish uchun quyidagi bir qator omillar talab etiladi:

- ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy shart-sharoitlari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'iboti;
- ta'lim olishga nisbatan kuchli rag'batni shakllantirish;
- hayotga nisbatan ta'limiy munosabatni shakllantirish;
- o'quvchilarda nostandart fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini oshirish.

Albatta, ushbu omillarning har biri alohida yo'nalish sifatida o'zida keng ko'lamdagi mazmunni ifodalaydi va har birining to'laonli ta'minlanishi uchun ta'limiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy yo'nalishlarda tizimli ishlarni tashkil

qilishni talab qiladi. Tadqiqotimiz mazkur omillardan biri, ya'ni o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirishga qaratilgani bilan xarakterlanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy savodxonligi va qobiliyatini oshirish ularning to'laqonli bilim egallashlari va ijtimoiy munosabatga kirishishlarini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kompetentsiyaviy, akmeologik, evristik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish o'ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladigan ilmiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. O'quvchilar nutqini turli omillar vositasida rivojlantirishga nisbatan kompetentsiyaviy yondashuv ularda axborot-kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirishga, ijtimoiy munosabatlarga tez va oson kirishish ko'nikmalarini qaror toptirishga, fanlarni o'zlashtirishdagi sifatni ta'minlashga yordam beradi. O'quvchi nutqining to'g'ri shakllanishi, asosan, boshlang'ich ta'limda izga solinadi va o'rta ta'limda takomillashtiriladi. Nutq – shaxs faoliyatining turi bo'lib, til vositalari asosida tafakkurni ishga solish bilan namoyon bo'ladi.

Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'z fikrini emotsional tarzda ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faol faoliyat olib borishining muhim vositalaridan biridir, o'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. O'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchilar talaffuzni takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, til birliklarining sintaktik aloqaga kirishish va bog'lanishli nutqni faol egallashlarida yordam beradigan shakl, vosita va metodlardan foydalanishlari kerak bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining maqsadi o'quvchilarda tafakkur qilish, tilning ifoda vositalarini maqsadga muvofiq tarzda, ayni shu tilning me'yorlariga rioya qilgan holda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bolani kichik yoshdanoq ravon tilda gapirishga, fikr taqozo qiladigan eng munosib so'zlardan foydalanishga o'rgatib borish muhim sanaladi. Bu keyinchalik ko'nikma shaklida o'quvchining jamiyatda ijtimoiy munosabatga kirishishida kuzatiladigan ruhiyat, nutq bilan bog'liq lisoniy to'siqlarning kuzatilmasligini ta'minlaydi.

O'quvchilar nutqini rivojlantirish bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan quyidagi metodologik yondashuvlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan:

- nutqi sekin rivojlanuvchi yosh o'quvchilarda so'z boyligini oshirishga qaratilgan nutq terapiyasining mazmuni va usullarini ishlab chiqish metodikasi (O.E.Gromova); [2].

- o'quvchilar nutqida takrorlanadigan turli darajadagi abstraktsion bilim, ko'nikma va malaka tuzilmalarining tuzilishi va mazmunini aniqlash hamda modellashirish metodikasi (D.E.Blinova); [3].
- o'quvchilar nutqining shakllanishida tilning nazariy qoidalari va uni amalda qo'llash jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari (N.V.Gagarina) [1].
- o'quvchilar nutqining rivojlanishida verbal vositalarning o'rni va ulardan foydalanish metodikasi (E.V.Marto'nova)[4].

Mazkur tadqiqotlar o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalasiga lingvistik omillar nuqtai nazaridan yondashganligi bilan ajralib turadi. Bu jihat nutqni rivojlantirishga nisbatan ilmiy yondashuv bo'lib, o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ammo nutq muayyan ko'nikma va malakani talab qiladigan amaliy jarayon bo'lib, unga nisbatan sof ilmiy nuqtai nazardan yondashishning o'zi muammoga nisbatan bir taraflama yondashuvni qaror toptiradi va kutilgan natijani bermaydi. O'quvchilarda nutqiy qobiliyatni rivojlantirish uchun uning amaliy jarayon ekanligi bilan bog'liq metodikalardan foydalanish, xususan, badiiy adabiyot vositalari orqali masalaga echim izlash samaraliroq usullardan hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda dars mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga nazariy bilimlardan ko'ra amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu yoshdagi o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, tafakkur imkoniyatlari uchun nazariy bilimlarni egallash birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Nazariy mashg'ulotlar jarayonida yuklamaning oshib ketishi ularda ta'lim olishga nisbatan ishtiyoqning pasayishi bilan bog'liq oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga nisbatan ilmiy-amaliy yondashuvni qaror toptirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'quvchilarga boshlang'ich ta'limda jummalarni to'g'ri tuzish, o'zaro muomala qoidalari, fikrni bayon etish, qayta ijodiy hikoyalash, she'r yodlash orqali og'zaki nutq ko'nikmalari ham rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmagani kabi, nutq ham tafakkur asosida rivojlanishi o'quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim nuqtalardan biridir. Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarning so'zdan foydalanish, ularda bog'lanishli nutq tuzish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ona tili darslarida ko'proq o'quvchilarning yozma nutqiy savodxonligi ustida ishlanadi. O'qish darslari esa o'quvchilarga Vatan, vatanparvarlik, vatan va millatni sevis, tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati, oila, mahlla, qarindoshlik rishtalari kabi dastlabki va muhim tushunchalar haqida bilim berish jarayonida, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razolat,

halol va harom kabi dual tushunchalar haqida dastlabki fikr va mulohazalarini shakllantirish orqali ularning ham yozma, ham og'zaki bog'lanishli nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu kabi dars mashg'ulotlari o'quvchining nutqi, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat yaratadi.

Umuman, boshlang'ich sinfdagi barcha dars mashg'ulotlari o'quvchilar nutqining u yoki bu jihatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi. Matematika darslarida o'quvchilar tafakkuri yangi tasavvur va tushunchalar bilan boyiydi, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida tabiatdagi narsa-hodisalarni o'zaro solishtirish, taqqoslash orqali borliq haqidagi bilimlarini shakllantiradilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi, o'quvchining tafakkurini, nutqini o'stirishga ko'maklashadi.

Mehnat, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, musiqa darslari ham, darslardan tashqari mashg'ulotlar ham o'quvchi nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi. Avvalo, o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali ta'sirli so'zlashi zarur.

Tadqiqotimiz natijalari asosida o'quvchilar nutqini o'stirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi va ularni quyidagi 4 ta katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Lingvistik omillar.
2. Adabiy omillar.
3. Ijtimoiy omillar.
4. Tabiiy omillar.

Lingvistik omillar: o'quvchilarning tilga oid nazariy bilimlari va so'z boyligi;

Adabiy omillar: XOI va yozma adabiyot namunalari;

Ijtimoiy omillar: kishilar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro muloqot shakllari;

Tabiiy omillar: tevarak atrofdagi tabiiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Albatta, nutqning shakllanishi va rivojlanishi ko'p omilli va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bu va bundan tashqari omillarga ham bog'liq. Bunga oilaviy muhit, maktab muhiti, u bilan olib borilayotgan tarbiya ishlari, televidenie va radio kabi omillar ham borki, ular ham o'quvchilar nutqini rivojlantirishda muayyan darajada xizmat qiladi. Ammo, kengroq ma'noda, ushbu omillar biz aniqlashtirgan to'rtta omil bilan u yoki bu jihatlar bilan bog'lanadi.

Boshlang'ich sinflarda tashkil qilinayotgan dars mashg'ulotlarida tanlanadigan metodlar majmuini ham ushbu omillarga mos ravishda to'rtga bo'lish maqsadga muvofiq:

1. Lingvistik omillarga tayanuvchi metodlar.
2. Adabiy omillarga tayanuvchi metodlar.
3. Ijtimoiy omillarga tayanuvchi metodlar.
4. Tabiiy omillarga tayanuvchi metodlar.

Ushbu omillar dars mashg'ulotida muayyan darajada omuxtalashadi, ammo o'qituvchi dars mashg'ulotining o'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishga nisbatan ta'sirini mudom anglagan holda, mashg'ulotdagi qaysi topshiriq yoki vazifa qaysi omil yoki metod turiga mansubligini sezib turishi lozim. Dars mashg'ulotida ushbu metodlarning mavjudligini umumiy tarzda his qilish va unga umumiy tarzda yondashish kutilgan natijani bermaydi. Mashg'ulot paytidagi har bir topshiriq aniq metod asosida va aniq maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirilishi samaradorlikni ta'minlaydi.

Bizning tadqiqotimizda adabiy omillar, xususan, XOI namunalari vositasida o'quvchilar nutqini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va metodlarini takomillashtirish muammosi borasida fikr yuritiladi.

Folklor namunalari vositasida o'quvchilar nutqini o'stirishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari, tasdiqlangan ta'lim standartlariga muvofiq shakl va metodlari aniqlashtirilmagan. Bu esa ta'limda boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning nutqiiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq muayyan kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Bu kamchiliklar quyidagilardan iborat:

- adabiy matnlarni o'quvchilarning yoshiga mos holda til va nutq omillari bo'yicha tahlilning etarli darajada emasligi;
- o'quvchilarning so'z boyligini oshirish masalasiga e'tiborning sustligi;
- o'quvchilarning orfoepik ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qilmaslik;
- nutqiy aloqa ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tiborning kamligi;
- og'zaki nutqni rivojlantirishning psixofiziologik va pedagogik xususiyatlari borasida tadqiqotlarning etishmasligi;
- nutq va tafakkur munosabatining psixofiziologik mexanizmlarini takomillashtirish muammosining ishlanmaganligi va hokazo[5].

Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarda taqlid xususiyati o'ta kuchli bo'ladi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'zlari nutqiy me'yorlar borasida o'quvchilarga o'rnak va namuna bo'lmog'i lozim. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishi rejali tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina, u o'quvchining butun vujudiga, uning hissiyotiga, tasavvuriga, iroda va xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta'sir etib, nutqning ravon ifodali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan nutq malakalarini rivojlantirish orqali, ularda to'g'ri so'zlash va aniq, mantiqiy fikr ifodalash salohiyati shakllana boradi, ijodiy faoliyat va iste'dodlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish uchun barcha mashg'ulotlarda ularning lug'at boyliklarini aniq maqsadga yo'naltirilgan reja asosida so'zlarni nutqda faol qo'llashga o'rgatish orqali mustahkamlab borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гагарина Н.В. Становление грамматических категорий русского глагола в детской речи. Автореф. дисс. кан. фил. наук. –С.Пт.: 2009.
2. Громова О.Е. Формирование начального детского лексикона в условиях направленного коррекционно-развивающего обучения. Дисс. кан. пед. наук. –М.: 2003.
3. Блинова Д.Е. Когнитивно-фреймовая характеристика детской речи на раннем этапе развития. Дисс. кан. фил. наук. –М.: 2012.
4. Мартынова Е.В. Вербализация локативных ситуаций в речи дошкольного возраста. Дисс. кан. фил. наук. –Саратов.: 2008.
5. Zarifov, H. (1965). *O'zbek folklori masalalari*. Toshkent: Fan nashriyoti.